

O'TKIR LEYKEMIYADA QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY DAVOLASH PROTOKOLLARI

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

davolash ishi yo'nalishi 3 - kurs

*talabasi **Abdurahmonova Dilnoza***

Annotatsiya; Ushbu maqolada o'tkir leykemiyaning etiologiyasi, klinik xususiyatlari hamda davolashda qo'llaniladigan zamonaviy protokollar yoritilgan. So'nggi yillarda kimyoterapiya, maqsadli terapiya va suyak iligi transplantatsiyasining ahamiyati oshgani ta'kidlangan. Shuningdek, yangi generatsiya dori vositalari va kombinatsion davolash usullarining samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'tkir leykemiya, kimyoterapiya, maqsadli terapiya, transplantatsiya, zamonaviy davolash protokollari

O'tkir leykemiya — qon hosil qiluvchi to'qimalarning malign kasalligi bo'lib, blast hujayralarning tezkor ko'payishi bilan tavsiflanadi. U bolalar va kattalarda uchrashi mumkin bo'lib, klinik kechishi og'ir hamda davolashni o'z vaqtida boshlash talab etiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, o'tkir limfoblast leykemiya (OLL) bolalarda eng ko'p uchraydigan gematologik kasalliklardan biridir, o'tkir miyeloblast leykemiya (OML) esa ko'proq kattalarda kuzatiladi. O'tkir leykemiya davolashning asosiy bosqichlari Induksiya terapiyasi – asosiy maqsad remissiyaga erishishdir. Konsolidatsiya terapiyasi – remissiyaning mustahkamlash va blast hujayralarni butkul yo'q qilish. Qo'llab-quvvatlovchi terapiya – kasallikning qaytalanishining oldini olish. Zamonaviy davolash protokollari; bugungi kunda xalqaro amaliyotda “ALL-BFM”, “UKALL”, “Hyper-CVAD”, “AML-BFM”, “7+3 rejimi” kabi protokollar keng qo'llaniladi. Kimyoterapiya: sitarabin, daunorubitsin, idarubitsin, vinkristin, metotreksat kabi preparatlar asosiy o'rinni egallaydi. Maqsadli terapiya: Imatinib, Dasatinib, Midostaurin kabi molekulalar maqsadli mutatsiyalarni (BCR-

ABL, FLT3 va b.) bloklab, samaradorlikni oshiradi. Immunoterapiya: CAR-T hujayra terapiyasi va monoklonal antitanachalar (blinatumomab, inotuzumab ozogamicin) oxirgi yillarda sezilarli natijalar bermoqda. Transplantatsiya: Allogen suyak iligi transplantatsiyasi yuqori xavfli holatlarda eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Davolash samaradorligini oshirish omillari; Bemorning yoshi va umumiy ahvoli Sitogenetik va molekulyar markerlar mavjudligi Zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanish (flow-sitometriya, molekulyar-genetik testlar)

Xulosa

O'tkir leykemiyada qo'llaniladigan davolash protokollari yildan-yilga takomillashmoqda. An'anaviy kimyoterapiya usullari bilan bir qatorda maqsadli va immunoterapiya, shuningdek, suyak iligi transplantatsiyasi samaradorlikni oshirmoqda. Individual yondashuv va genetik markerlar asosida tanlangan davolash rejimlari kelajakda o'tkir leykemiyaning davolashda yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. National Comprehensive Cancer Network (NCCN). Acute Lymphoblastic Leukemia Guidelines, 2024.
2. Döhner H., Weisdorf D., Bloomfield C. Acute Myeloid Leukemia. N Engl J Med, 2023.
3. Pui C.H., Evans W.E. Treatment of Acute Lymphoblastic Leukemia. N Engl J Med, 2019.
4. Tallman M.S. et al. Acute Myeloid Leukemia: Current Treatment and Future Directions. Blood Reviews, 2022.
5. WHO Classification of Tumours of Haematopoietic and Lymphoid Tissues, 5th Edition, 2022.